



KOSMETIK TERMINLARNING YUZAGA KELISH MANBALARI VA MOHIYATI

Mustafoyeva Mavluda Anvarovna

BuxDTU, O'zbek va xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kosmetika va kosmetologiyaning shakllanish bosqichlari hamda bu sohaga tegishli ayrim terminlarning kelib chiqishi va ma'nolari tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *kosmetika, kosmetologiya, tushuncha, shifobaxsh, bezak, modda*

Kosmetika tarixi insoniyat tarixi bilan uzviy bog'liqdir. Hatto ibtidoiy davrlarda ham odamlar yog'och va qatronlarni yoqish orqali ovqatga xushbo'ylik berib, ta'mini yaxshilash mumkinligini tushunishgan. Keyinchalik odamlar mazali, to'yimli oziq-ovqat salomatlik va tashqi ko'rinishni yaxshilashga yordam berishini payqashdi, bu ularning terisining holatida ham sezilar edi.

Bu jarayonlarda qadimgi buyuk tamaddun davrlaridagi makonlarda ham go'zallik va unga doir atamalarning paydo bo'lishi kabi hodisalarni kuzatish mumkin. Jumladan, qadimgi Hindiston, Misr, hattoki Amerika qit'asida odamlar o'z xudolari uchun xushbo'y yog'lar va surtmalar, shamlar tayyorlashgan hamda ulardan turli marosimlarda foydalanishgan.

Xushbo'y kosmetik vositalar Bobil (hozirgi Iroq hududi), keyinchalik Gretsiya va Italiyada ham yuqori baholangan. Misrda Kleopatra tomonidan kosmetikaga doir tuzilgan birinchi katalog topilgan bo'lsa, rimlik ayollar allaqachon kosmetik surtmalar, niqoblardan kundalik turmushda foydalanar edi. Misrlik va gretsiyaliklar kipriklarini bo'yash uchun sopol idishlarda maxsus tayoqchalarni kuydirib, kipriklariga sepishar edi. Ko'z ostini yashil mis karbonat bilan chizishgan yoki ko'zlarini uzunroq ko'rsatish uchun qovoqlariga qora chiziq - hozirgi til bilan aytganda, yoy tortishgan. Qadimgi Misr pardozining bir yo'nalishi bo'lgan bu odat bugungi kungacha saqlanib qolgan. Mashhur Rim hammomlarida esa turli essensiya va moylar ishlatilardi.

Tarixdan yaxshi tanish bo'lgan efir xushbo'ylik tushunchasi qadimiy ildizga ega. Grek mifologiyasida EFIR Ereb (qorong'ulik) va Nikta (tun) ning tug'ilishidir. Platon efirni "atmosfera ustki qismi, toza havo" [5:276] deya ta'riflagan. Donishmandlar Pifagor, Anaksagorning ta'rif bo'yicha efir (grekcha aither) so'zi "bulutlar ustidagi havo" ma'nosini bildirib, Oy ostidagi osmonni to'ldiruvchi nozik moddadir.

Eramizdan oldingi II asrda yashab o'tgan rimlik shifokor Galen kosmetikani kosmetik nuqsonlarni yopish maqsadida qo'llangan grim [fr. grime - qiziq chol, eski ital. grimo — ajinli] tushunchasi hamda tabiiy go'zallikni saqlash uchun xizmat qiluvchi kosmetikaga bo'ladi. Qadimgi Rimda o'sha zamonlardayoq hidlarning davolovchi xususiyatga egaligiga ishonilgan. Urushlar va sayohatlardan greklar yurtiga yangi hidli moddalarni olib kelishgan. Antik parfumerlar deyarli har qanday guldun qimmatbaho atirlar va arzon "hidli suvlar" olishgan [1:29].

Kosmetik vositalarni tayyorlash retseptlari qattiq sir tutilgan hamda otadan bolaga o'tgan. Bunday vositalarni tayyorlash esa tegishli marosimlar hamohangligida olib borilgan.



Xushbo'y sovun tayyorlash kabi qadimgi retseptlardan ba'zilari bizning kunlarga saqlanib qolgan.

Zamonaviy lab bo'yog'ining prototipi Qadimgi Misrdayoq paydo bo'lgan. Nefertiti zamonida undan lablarni bo'yash uchun foydalanilgan. U alohida olma turining etidan tayyorlangan shifobaxsh surtma bo'lgan. Hozirgi kunda dekorativ kosmetikaning ajralmas qismi bo'lgan upa (powder) ham shu davrga mansub. Upa sifatida misrlik ayollar maxsus oq moddadan, tirnoqlarini bo'yash uchun esa yashil bo'yoqdan foydalanishgan. Ma'lumki, ko'pchilik kosmetik vositalarning yaratilishi shu davrga to'g'ri keladi. Qadimgi tamaddun xalqlari yonoqlarini qizartirishgan, kiprik va qovoqlarini bo'yashgan, sochlarini qirdirib, jingalak qilishgan, badan va sochlariga xushbo'y moddalar surtishgan, tutatqilar tutatishgan, tanalariga tatuировkalar urishgan.

Keyinchalik varvarlar bosqini tufayli G'arbda uzoq vaqt mobaynida xushbo'y mahsulotlar ishlab chiqarishda uzilish kuzatildi. Faqatgina ziravorlar piri bo'lgan islom dinidagi xalqlar, aniqrog'i, arablar va forslar yuksak darajadagi parfumeriya [fr. parfumerie < lot. per fumum — "tutun orqali"] san'atini qayta yo'lga qo'yishdi. Ular tomonidan distillatsiya [lot. dis- bo'lish, ajratish; stilla— tomchi, "tomchilab ajratish"] yo'llari takomillashtirildi. Alkimyo va kosmetika bilimdoni bo'lgan yaxshi parfumerlar alohida hurmatga sazovor bo'lgan. Ularning faoliyati haqida afsonalar yurardi.

Insoniyat azaldan parfumeriya va kosmetika tushunchalarini ular tegishli termin sifatida ancha kech paydo bo'lgan bo'lsa-da, ajratgan holda qo'llagan. Kosmetika tarixi taxminan 6000 yilni o'z ichiga oladi. Kosmetika madaniyatning eng qadimiy elementlaridan biridir. Qadimgi Sharq uning vatani hisoblanadi. Bu yurtlarda yuz va tanaga zeb berish san'ati yuqori cho'qqisiga yetgan. Eramizdan oldingi taxminan 500 yillikda assiriyalik ayol va erkaklar badanlariga xushbo'y narsalar surtib, sochlariga o'tlardan tayyorlangan hidli damlamalardan sepishgan. Qadimgi forslar o'simliklardan surtma, yog' va bo'yoqlar ishlab chiqarishgan. O'rta Osiyo xalqlari, ayniqsa, o'zbek xalqi tomonidan ham azaldan go'zallik qadrlanib, ayol va erkaklar tomonidan zeb berish va ko'z ravshanligini oshirish maqsadida hayvon iligidan tayyorlangan surmalar, sochni uzaytirish va mustahkamlash uchun yog'lar, o'sma, xina, bayramlar va kundalik turmushda mushki ambar, guloblardan foydalanilar hamda ayollar go'zalligi va sarishtaligining belgisi sifatida zulflar qo'yish urf edi. Bu vositalar o'zbek lirik she'riyatida ham ayollarning go'zallik va nafosat ramzlari sifatida asrlar davomida yuksak darajada e'tirof etilgan.

Zamonaviy olamda esa kosmetik mahsulotlarni nomlashda eng asosiy qiyincilik – turlar bo'yicha mos nominatsiyalash muammosi. Zero, parfyumeriya va bo'yanish vositalarini nomlash potentsial iste'molchilarda ijobiy kayfiyat va hissiyotlarni uyg'otishga xizmat qilishi darkor. Parfyumeriya va kosmetika nomlari iste'molchilar, xaridorlarning didiga mos hid va rang tasvirlarini ifoda ettirishga qaratilgani holda bu sohaga tegishli yangidan yangi terminlar "tug'ilaveradi."

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Bogdanova L. Parfyumeriya. - M.: Vneshsigma, 2000.



2. Briot E. (2007). Fashion Sprayed and Displayed: The Market for Perfumery in Nineteenth Century Paris. Proceedings of the Economic History Society Annual Conference. Exeter Publishing University of Exeter, pp. 69-72.
3. Chernatony L. de, Donald Mc. M., Wallace E. (2011). Creating Powerful Brands. L.: Taylor and Francis. 249 p.
4. Cirlot J. E. (2001). A dictionary of symbols. L.: Routledge Taylor and Francis. 398 p
5. Ilyasov A. Antichnie korni russkogo yazika. Etimologicheskij slovar. - Rostov: Feniks, 1998.
6. Makovskiy M. Sravnitelnyy slovar mifologicheskoy simboliki v indoevropeyskix yazikax. Obraz mira i miri obrazov. - M.: Gumaitarniy izdatelskiy sentr "Vlados", 1996. - 415s.